

## DARS JARAYONLARINI TASHKIL QILISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Zayniddinova Xurshida Dilmurod qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dars jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, uning samarasi va ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion ta'lim texnologiyalari, ijodkorlik, amaliy ko'nikmalar, axborot texnologiyalari, samaradorlik, interaktivlik.

**Abstract:** This article talks about the use of innovative educational technologies in the course of the lesson, its effectiveness and importance.

**Key words:** innovative educational technologies, creativity, practical skills, information technologies, efficiency, interactivity.

**Аннотация:** В данной статье говорится об использовании инновационных образовательных технологий в ходе урока, их эффективности и важности.

**Ключевые слова:** инновационные образовательные технологии, творчество, практические навыки, информационные технологии, эффективность, интерактивность.

Dars jarayonlarini tashkil qilishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hozirgi zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etishga, talabalarning darsga bo'lgan qiziqishini yanada orttirishga hamda dars jarayonini kreativ bo'lishiga yordam beradi. Xo'sh, innovatsion ta'lim texnologiyalari o'zi nima?

Innovatsion ta'lim texnologiyalari bu hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonlarida o'qitishning samaradorligini yanada oshirish talabalarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan ilg'or usul va vositalardir. Ushbu texnologiyalar pedagogik yondashuvlarni yangilash, ta'lim jarayonini talabalar uchun yanada interaktiv va qiziqarli qilish, shuningdek texnologiyalar yordamida ta'lim mazmunini sifat jihatidan yaxshilashga xizmat qiladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalariga axborot - kommunikatsiya texnologiyalari (elektron o'quv qo'llanmalar, onlayn kurslar, vertual laboratoriyalar), masofaviy ta'lim platformalari ( Moodle, Google Clasroom, Edmodo), simulyator va vertual haqiqat ( amaliy



tajribalarni takrorlash imkonini beruvchi texnologiyalar), gamifikatsiya, ya'ni o'yinlashtirish ( ta'lim jarayonlariga o'yin elementlarini kiritish) larini misol tariqasida olishimiz mumkin.

Ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning asosiy xususiyatlari:

1. Innovatsionlik: bizni yangicha yondashuv va ilg'or texnik vositalardan foydalanishga undaydi.

2. Samaradorlik: ta'lim jarayonini soddalashtirish hamda qisqa vaqt ichida yuqori natijaga erishishimizga ko'maklashadi.

3. Interaktivlik: ta'lim olish jarayonining ishtirokchilari, ya'ni talabalar va o'qituvchi orasida faol muloqotni ta'minlaydi.

4. Raqamlashtirish: ta'lim jarayoniga kompyuter texnologiyalari va internetni keng jalb qiladi.

Ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ta'lim olish jarayon ishtirokchilariga katta foyda beradi, xususan, ta'lim jarayoni qiziqarli va samarali bo'ladi. Talabalarning ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi, individual yondashuv hamda moslashuvchanlik ta'minlanadi, texnologiyalarni o'rganish, kundalik hayotda ulardan foydalana olish ko'nikmalari rivojlanadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari zamonaviy dunyo talablariga javob beradigan bilimli va malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ro'l o'ynaydi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Ushbu yo'nalishda qabul qilingan bir qator qaror va farmonlar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

2022- yil 28-fevralda tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi"da ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlar belgilangan. Prezidentimiz yana bir o'z murojaatnomasida "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi", deb ta'kidlaydi. Prezidentimizning ushbu qaror va farmonlari ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, o'qitish sifatini oshirish va zamonaviy bilimlarni zamonaviy texnologiyalar orqali yosh avlodga yetkazishga qaratilgan.

M.E.Vayndorf- Sisoeva, M.L.Subochevalar e'tiroficha, raqamlashtirishning afzalliklari "o'z-o'zini boshqarish" chegaralarini kengaytirish, pedagogik muhitda yetakchilikni



rivojlantirish, individual ta'lim trayektorlarini loyihalash uchun shart-sharoitlarni yaratish, takomillashtirish.<sup>4</sup>

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, innovatsion ta'lim texnologiyalarini dars jarayonlariga kiritish orqali o'qituvchilar talabalar uchun individual yondashuvni ta'minlab, bilim olish jarayonini ancha samarali qiladi. Bu esa nafaqat bilim olish jarayonining sifatini oshiradi, balki talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Miromonovichning 2020 yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasi. 2020 yil
2. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" 2022-yil 28-fevral.
3. Вайндорф-Сысоева М.Е. "Цифровое образование" как системообразующая категория: подходы к определению/ М.Е.Вайндорф-Сысоева, М.Л.Субочева // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. -N°3. 2018- с 25-36

